

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati
Komplayens xizmati tomonidan 2025-yil davomida
korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash yo‘nalishida
amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

H I S O B O T

08.01.2026-yil

Navoiy shahri

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash “NKMK” AJda har yili amalga oshiriladi.

Hususan, 2023-yilda o‘tkazilgan baholashda **19 ta yuqori** va **57 ta o‘rta**, 2024-yilda **3 ta yuqori** va **45 ta o‘rta** hamda 2025-yilda **1 ta yuqori** va **19 ta o‘rta** xavf-xatari mavjud bo‘lgan funksiyalar aniqlanib, ushbu xavf-xatarlarni minimallashtirish hamda korruptsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Masalan, “NKMK” AJning 2025-yilda Jamiyatda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tadbiri o‘tkazilgan. Baholash natijalariga ko‘ra, Jamiyatda mavjud jami **1 478 ta** funksiyalarning **1 tasi** “yuqori”, **19 tasi** “o‘rta” va **1 458 tasi** “past” darajadagi xavf-xatarlar baholanib, ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2025-yil 23-yanvarda **14** banddan iborat korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, kelgusida oldini olish va korruptsiyaga qarshi kurashish Dasturi, Korruptsiyaviy xavf-xatarlarning umumlashtirilgan Xaritasi va korruptsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati hamda korruptsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestri shakllantirib, tasdiqlangan.

2025-yil 31-dekabr holatiga Dasturning **barcha** bandi ijrosi to‘liq ta‘minlandi, shundan **3 ta** funksiya avtomatlashtirilgan va **11 tasi** tartibga solingan.

Masalan, Dasturning 2-bandida Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tomonidan “NKMK” AJ tarkibiy bo‘limlari taqdim etayotgan namunalar ustida olib borilgan tahlillar va tadqiqotlarning amalga oshirish mexanizmi (*buyurtmanomadan boshlab yakuniy hisob-kitoblarni to‘lovga qaratishga qadar bo‘lgan bosqich*) hamda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha tannarx (*kalkulyatsiyasi*) xarajatlarini hisoblash tizimini avtomatlashtirish bo‘yicha topshirig‘i ijrosi ta‘minlanib, ushbu dastur ishlab chiqilgan va to‘liq amaliyotga tadbiiq etilganligi to‘g‘risida 20/01-01-02/831-sonli dalolatnoma Jamiyat Bosh muhandisi tomonidan 03.09.2025 yilda tasdiqlangan.

Shuningdek, mazkur Dasturning ijrosi natijasida Jamiyat Bosh yuriskonsult tomonidan “NKMK” AJ nomidan da‘vo talabidan qisman yoki butunlay voz kechish, da‘vo miqdorini kamaytirish, kelishuv bitimini imzolashni kollegial ko‘rib chiqilgandan so‘ng imzolash tartibi (*1-band*), ishga kirish bilan bog‘liq test savollari

hamda boshqa tanlov materiallarining axborot xavfsizligini ta'minlash, Kadrlar sohasida ishlayotgan barcha xodimlarni "Korrupsiyaga qarshi (*Compliance*)" elektron kursida maxsus o'qitilishi (*3-band*), nomenklatura yaratish yoki amalda ishlatilayotgan nomenklaturaga o'zgartirish kiritish jarayonini Xaridlar tizimida shakllantirish va kelishishni avtomatik tarzda amalga oshirish hamda markaziy moddiy-texnik bazasi va tarkibiy bo'linmalar omborxonalaridan tovar-moddiy boylikni hisobga olish va chiqarish (*11-band*) mexanizmlari joriy etilishi ta'minlandi.

Istiqbolli loyihalarni izlash va baholash bo'limi (*4-band*), Transport boshqarmasi (*5-band*), Dispetcherlik guruhi (*6-band*) hamda Komplaens xizmati (*13-band*) faoliyatida sodir etilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilishi yoki mavjudlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Bundan tashqari, geomexanika monitoringi asbob-uskunalarini tajriba sanoat sinovidan o'tkazish (*7-band*), Axborot-kommunikatsiya tizim va texnologiyalardan foydalanish, kuzatish uchun narxlarni belgilash (*kalkulyatsiya*) hamda ularni kelishish tartiblari (*8-band*) ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, oldingi yillarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tadbirlarida aniqlangan xavflarni bartaraf etish, kelgusida oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturilari ijrosi doirasida ham bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Xususan, 20.02.2024-yilda tasdiqlangan Dasturning 4-bandida Jamiyatning tegishli bo'linmalari tomonidan olib boriladigan burg'ulash ishlari bilan bog'liq bo'lgan dastlabki geologik ma'lumotlar (*burg'ulash qudug'i, intervallari, litologiyasi, minerologiyasi*)ni yig'ish, jamlash, tizimlashtirish, tahlil qilish, qayta ishlash imkonini beruvchi yagona avtomatlashtirilgan elektron dasturini yaratish va amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha topshirig'i berilgan.

Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan geologik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish jarayonini raqamlashtirish bo'yicha "Micromine Geobank" dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan va to'liq amaliyotga tatbiq etilganligi to'g'risida 07-03-05/01/1077-sonli dalolatnoma Jamiyat Bosh muhandisi tomonidan 14.12.2024-yilda tasdiqlangan.

Shu bilan bir qatorda, Jamiyat qabul kassasiga oltin tarkibli mahsulotlarni qabul qilish, mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini hisobga olish va nazorat qilish, atrof muhitni monitoring dasturi tuzilishi va monitoring dasturida suv resurslarini, atmosfera havosini, tuproqlarni ifloslantiruvchi manbalarni, shuningdek yer osti suvlarining ifloslanishini monitoring qilish, Jamiyatda Hisob siyosatini tartibga solish, foyda solig'i, yer qa'ridan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni hisob-kitoblarini

elektron tarzda shakllantirish, kontentni plagiatga tekshirish, mehnat jarayonlarini kuzatish (*xronometraj o'tkazish*) ishlari xisobini yuritishning avtomatlashtirish, xodimlarni ishga qabul qilish yuzasidan tanlab olishda sinov usullarini o'tkazish, kadrlar zaxirasini yuritish, Jamg'arma tasarrufidagi yotoqxonalardan hamda xizmat xonalari ajratish yuzasidan elektron navbatni shakllantirish, murojaatlarni ro'yxatga olish va javob xatlarini raqamlash tizimini takomillashtirish, hujjatlarni ro'yxatga olish, "Bajarilgan ishlar (*qilingan xarajatlar*) to'g'risidagi ma'lumotnoma hisob-faktura"si shakllanishi, aylanishi va tasdiqlanishi, ruyxatga va nazoratga olinishini ta'minlash, tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish uchun texnik topshiriqlarni kelishish jarayonlari avtomashlashtirilishi ta'minlandi.

Shuningdek, Mehnat muxofazasi, sanoat xavfsizligi va ekologiya bo'yicha direktor, Bosh muhandis maslahatchisi, Zaxiralarni qazish monitoringi va hisobdan chiqarish bo'yicha xizmati, Loyiha ofis (*Transformatsiya*) boshqarmasining va uning tarkibiy bo'limlari, Mehnatni tashkil etish va ish haqi bo'limi, O'quv markazi, Markaziy konstruktorlik va loyihalash byurolari, Jamiyatda ish yuritish tartibi, arxiv hujjatlarini raqamlashtirish bo'yicha mas'ullarni va ijro muddatlarini belgilash faoliyatida sodir etilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilishi yoki mavjudlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Komplayens xizmati tomonidan Jamiyat Markaziy apparati va tarkibiy bo'linmalarining jami **8 074 ta** (*7 084 ta buyruq va 990 ta farmoyish*) ichki idoraviy hujjatlar loyihalari korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Korrupsiyaviy ekspertiza natijasida **168 ta** ichki idoraviy hujjatlar loyihalari normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.